



BUXORO AMIRLIGI KARVON SAROYLARI XIX ASR BIRINCHI YARMI TADQIQOTLARIDA

Rahima Alimova

O'qituvchi, Dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Karvon saroy, elchilik, ekspeditsiya, A.F.Negri, E.K.Meyendorf, E.Eversman, Budrin, K.F.Butenyev, N.Xanikov.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning birinchi yarmida Buxoroga uyushtirilgan Rossiya elchiliklari va ekspeditsiyalari, ulardan kutilgan maqsad, elchilik vakillari tomonidan yaratilgan asarlar va ularda Buxoro amirligidagi karvon saroylar haqidagi ma'lumotlar olib berilgan. Masalan, 1820-yilda Buxoroga yuborilgan A.F.Negri boshchiligidagi elchilik, elchilikning maqsadi, elchilik vakillari, ular tomonidan yaratilgan asarlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinadi. Elchilik vakili rus ofitseri, sayyohi E.K.Meyendorfga Orsk va Troiskdan Sirdaryogacha bo'lgan yerdarda qal'a qurish uchun qulay joylarni aniqlash, uzunlik va kenglik astronomik kuzatuvlarini olib borish, yo'llar marshrutlarini kuzatish topshirilgan. Elchilik tarkibida naturalist, botanik, zoolog, entomolog, paleontolog, vrach va sayyoh E.A.Eversman (1794-1860) ham bo'lib, u 1820-yilda Orenburg general-gubernatori Essening tavsiyasiga ko'ra, Buxoroga jo'natalayotgan rus elchiligidagi vrach bo'lib qatnashgan. U elchilik tarkibida tatar savdogari qiyofasida Buxoroga kelgan. E.A.Eversmanning asarida Buxoro xonligining ichki va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalariga oid batafsil ma'lumotlar keltirilgan, shu bilan birgalikda shaharda mavjud karvon saroylar tahlil qilingan. 1841-yilda Rossiyadan Buxoroga "1841-1842-yillar Buxoro ekspeditsiyasi" nomi bilan ma'lum bo'lgan podpolkovnik K.F.Butenyev ekspeditsiyasi jo'nataligan bo'lib, uning tarkibida M.Bogoslovskiy, V.Leman, N.Xanikov va boshqalar ham bo'lgan. Missiya qatnashchilari Buxoro bo'ylab tadqiqot ishlarini olib borgan. Ekspeditsiya vakillari tomonidan tabiiy-tarixiy, geografik xarakterdagi maqolalar va asarlar nashr qilingan. K.F.Butenyevning o'zi jurnalda Buxoro amirligidagi tog'-kon sanoati, mineralogiya va tangashunoslik bo'yicha bir nechta maqolalar nashr qildirgan.

K.F.Butenyev missiyasi vakillaridan biri yirik rus sharqshunosi, diplomat, tarjimon Nikolay Xanikov bo‘lib, Buxoroga tashrifi yakunida o‘zining “Buxoro xonligi tarixi” asarini yaratgan. Asar muallifning o‘zi guvoh bo‘lganlari, so‘rab-surishtirishlari va rasmiy hamda shaxsiy yozma hujjatlarni o‘rganishlari asosida yozilgan.

Mazkur maqolada elchilik vakillari tomonidan yaratilgan asarlarda Buxoro amirligining savdo-iqtisodiy munosabatlari, ichki va tashqi savdo holati, karvon saroylari, ularning qurilishi, nomlari, kimlarga tegishli ekanligi, hujralarni ijaraga berish narxlari va u joyda yashagan turli mamlakat savdogarları haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan. Karvon saroylarning mamlakat ichki va tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan.

CARAVAN PALACES OF BUKHARA EMIRATE XIX CENTURY IN THE FIRST HALF STUDIES

Rahima Alimova

Teacher, Docent

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Caravanserai, embassy, expedition, A.F.Negri, E.K.Meyendorf, E. Eversman, Budrin, K.F.Butenyev, N.Khanikov.

Abstract: This article reveals information about the Russian embassies and expeditions organized to Bukhara in the first half of the 19th century, their expected goals, and the works created by the representatives of the embassy. For example, information on the embassy headed by A.F. Negri to Bukhara in 1820, the purpose of the embassy, representatives of the embassy, and the works created by them will be analyzed. Russian officer and tourist E.K.Meyendorff, the representative of the embassy, was assigned to identify suitable places for building a fortress in the lands from Orsk and Troisk to Syrdarya, to conduct astronomical observations of longitude and latitude, and to monitor road routes.

The embassy also included naturalist, botanist, zoologist, entomologist, paleontologist, doctor and traveler E.A. Eversman, who was a doctor in the Russian embassy to Bukhara in 1820, on the recommendation of Orenburg Governor-General Essen, attended. He came to Bukhara in the guise of a Tatar merchant as part of the embassy. E. A. Eversman's work provides detailed information on the internal and external trade and economic relations of the Bukhara Khanate, and also analyzes the presence of many caravanserais in the city.

In 1841, the expedition of lieutenant colonel K.F. Butenyev, known as the Bukhara expedition of 1841-1842, was sent from Russia to Bukhara, which included M. Bogoslovsky, V. Leman, N. Khanikov and others. The participants of the mission conducted research in Bukhara. The representatives of the expedition published articles and works of a natural-historical and geographical nature. K.F. Butenev himself published several

articles on mining, mineralogy and numismatics in the Bukhara Emirate in the magazine.

The representative of K.F. Buteneyev's mission was the great Russian orientalist, diplomat, translator Nikolay Khanikov, who was considered the second person in the embassy. At the end of his visit to Bukhara, Khanikov created his work "History of the Khanate of Bukhara". The work was written on the basis of the author's own eyewitnesses, inquiries and studies of official and personal written documents.

This article analyzes the trade and economic relations of the Bukhara Emirate, internal and external trade, caravan palaces, their construction, names, to whom they belong, prices for renting rooms, and merchants from different countries who lived there. The importance of caravan palaces in the development of domestic and foreign trade relations of the country is revealed.

КАРАВАННЫЕ ДВОРЦЫ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В ИССЛЕДОВАНИЯХ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА

Рахима Алимова

Преподаватель, доцент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Караван-сарай, посольство, экспедиция, А.Ф.Негри, Е.К.Мейендорф, Э.Эверсман, Будрин, К.Ф.Бутенев, Н.Хаников

Аннотация: В статье раскрываются сведения о русских посольствах и экспедициях, организованных в Бухару в первой половине XIX века, их предполагаемых целях, а также о трудах, созданных представителями посольства. Например, будут проанализированы сведения о посольстве, возглавляемом А.Ф.Негри в Бухару в 1820 году, целях посольства, представителях посольства и созданных ими произведениях. Русскому офицеру и путешественнику Е.К.Мейендорфу, представителю посольства, было поручено определить подходящие места для строительства крепости на землях от Орска и Троицка до Сырдарьи, провести астрономические наблюдения за долготой и широтой, а также следить за дорожными маршрутами. В состав посольства входили также естествоиспытатель, ботаник, зоолог, энтомолог, палеонтолог, врач и путешественник Е. А. Эверсман (1794-1860), который был врачом русского посольства в Бухаре в 1820 году, по рекомендации Оренбургского генерал-губернатора Эссена. Он приехал в Бухару под видом татарского купца в составе посольства. В работе Е. А. Эверсмана даются подробные сведения о внутренних и внешних торгово-экономических связях Бухарского ханства, а также анализируется наличие в городе множества караван-сараев.

В 1841 году из России в Бухару была отправлена экспедиция подполковника К. Ф. Бутеньева, известная как

«Бухарская экспедиция 1841-1842 годов», в которую входили М. Богословский, В. Леман, Н. Хаников и другие. Участники миссии провели исследования в Бухаре. Представители экспедиции опубликовали статьи и труды естественно-исторического и географического характера. Сам К. Ф. Бутенев опубликовал в журнале несколько статей по горному делу, минералогии и нумизматике в Бухарском эмирата.

Представителем миссии К. Ф. Бутенева был великий русский востоковед, дипломат, переводчик Николай Хаников. По итогам визита в Бухару Н.Хаников создал свой труд «История Бухарского ханства». Работа написана на основе собственных свидетельств очевидцев, опросов и изучения официальных и личных письменных документов.

В данной статье анализируются торгово-экономические связи Бухарского эмирата, внутренняя и внешняя торговля, караванные дороги, их постройки, названия, кто ими владеет, цены на аренду помещений, а также проживавшие там купцы из разных стран. Раскрыто значение караван-сараев в развитии внутренних и внешнеторговых связей страны.

KIRISH

O'rta Osiyoning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan savdo aloqalarida karvon saroylar alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki karvon saroylar karvonlarning to'xtab, tunab o'tadigan saroyi bo'lib, O'rta Osiyoning qo'shni davlatlar bilan aloqa qiladigan savdo yo'llari ustida joylashgan. Karvon saroy o'rtasida katta hovli, uning atrofi bir-ikki qavatli hujralar bilan o'ralgan, minorali qal'aband istehkom shaklida bo'lib, savdo manzillarida va shahardagi bozor (tim, toqlar qatoriga qurilgan. O'rta Osiyo xonliklarida ko'plab karvon saroylar bo'lib, ularning holatiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Buxoro amirligida ham karvon saroylar talaygina bo'lib, ular to'g'risida Buxoroga kelgan elchilik tarkibidagi mutaxassislar va tadqiqotchilar tomonidan qimmatli ma'lumotlar qoldirilgan.

XIX asrning 10-yillari oxirlarida Rossiya imperiyasi Buxoro xonligiga elchilik hozirlaydi. Bu elchilik Rossianing savdo-siyosiy maqsadlarida tashkil qilingan edi. 1820-yil iyun oyida maslahatchi A.F.Negri boshchiligidagi tashkil qilingan elchilik tarkibida rus ofitseri, sayyohi E.K.Meyendorf (1794-1863) ham bo'lgan. Unga Orsk va Troiskdan Sirdaryogacha bo'lgan yerlarda qal'a qurish uchun qulay joylarni aniqlash, uzunlik va kenglik astronomik kuzatuvlarini olib borish, yo'llar marshrutlarni kuzatish asosida "Umumi Bosh xarita"ni tuzishi va "Buxoroga boradigan va orqaga qaytadigan" yo'llar bo'yicha jurnal yuritishi topshirilgan edi.

E.K.Meyendorf sayohati davomida xonlik to'g'risida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni to'plagan hamda ko'rgan-kechirganlari, kuzatuvlari natijasida qiziqarli asar yaratib, uni 1826 yilda Fransiyada fransuz tilida "1820-yilda Orenburgdan Buxoroga sayohat"¹ nomi bilan nashr qildirgan.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro haqida rus sharqshunoslarining asarlari orasida E.K.Meyendorfning asari katta ahamiyat kasb etadi. Muallifning asari Buxoroning batafsil tarixini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda xonlikning ma'muriy-boshqaruv tizimi, uning

¹ E. Meyendorff. Reise von Orenburg nach Bouchara im Baron E. de Meyendorff. Nach dem franz. Original bearbeitet von C. Herm V. Scheider. – Jena, 1826.

tabiiy-geografik sharoitlari, yirik shaharlarning iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq masalalar, xususan, savdo-sotig‘i, karvon saroylari, bozorlari atroflicha tahlil qilingan. E.K.Meyendorfning asarida Buxoroda 14 ta karvon saroylar mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot beriladi, bular: Abdullajon, Qushbegi, Hind, No‘g‘oy, Xo‘ja Jo‘ybar, Toshkent, Qarshi, Miragul, Amir, Kullata, Fishana, Dankullashira, va ikkita Urganch nomi bilan ataladigan karvon saroylardir². Tadqiqotchi karvon saroylarning qurilish texnologiyasiga alohida e’tibor qaratib, eng katta Abdullajon karvon saroyi 1819-yilda qurilganligini ta’kidlaydi. Karvon saroylarning hammasi bir xil chizmada to‘rtburchak ikki qavatli qilib qurilgan, o‘rtasida hovli bo‘lgan. Hovli atrofida binoning birinchi qavatida hujralar bo‘lgan, unda peshtaxtalar joylangan, ularning ustidan ikkinchi qavat ko‘tarilgan. Hujralar uchun bir oyga taxminan 16 rubl ijara haqi to‘langan. Xonalar unchalik katta bo‘lmasa-da, ular bir vaqtida ham ombor, ham yashash xonasi vazifasini o‘tagan. Karvon saroylarning aksariyati dindor kishilarning vasiyatlari hisobiga qurilgan yoki vaqf qilib berilgan bo‘lib, undan keladigan daromad madrasa yoki machitlarga topshirilgan³, deyiladi.

Savdo rastalarining ko‘pligi Buxoroning savdo shahri ekanligini va bozor kunlari bu yerga atrofdan aholi ko‘p kelganligini isbotlaydi. Karvon saroylarda omborlar bo‘lishi bilan birga katta gumbazsimon binolarda terib qo‘yilgan yuzlab javonlar shaharda tayyorlangan ipak matolar bilan to‘la bo‘lgan. Har bir savdogarga bitta yoki bir nechta javonlar to‘g‘ri kelgan. Shunga o‘xshash boshqa karvon saroylardagi kichik hujralardagi xontaxtalarga boshqa mamlakatlarning mollarini terib tashlagan, undan so‘ng qimmatbaho ayollar kiyimlari uchun mo‘ljallangan hind, fors va rus parchalari, fors, rus, ingliz va hindlarning gul bosilgan gazlamalari qo‘yilgan. Har kuni ertalab soat 11 da do‘konlarga tovarlar olib kelib yoyiladi, soat 3 da tovarlar yig‘ishtiriladi va yig‘ishtirilgan tovar to‘p qilib bog‘lanadi, to‘plarning ba‘zilari 8 pudgacha yoki 320 funt keladi. Bu to‘plarni bir kishi ozgina to‘lov evaziga yelkasiga ortib, savdogarga tegishli karvon saroydagi omborga eltil beradi⁴.

Buxoroda karvon saroylarning ko‘pligi bu shaharga ko‘plab savdo karvonlari o‘zga yurtlarning tovarlarini olib kelayotgani, ichki va tashqi bozorlar juda yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. Tadqiqotchi Buxoro shahri ko‘chalari to‘g‘risida yozar ekan, ayrim ko‘chalarining uzunligi bir yarim verst⁵ ekanligi, ko‘chaning ikki tomonida do‘konlar bo‘lib, bir tomonida ayollar oyoq kiyimlari, boshqa tomonida xushbo‘y hid taratib turgan bo‘yoqchilik va attorlik mollari, uchinchi tomonda qimmatbaho toshlar, bular aslida unchalik ko‘p emas, Erondan keltirilgan feruza, Badaxshon va Arabistonдан keltirilgan yoqutlar, feruza toshlar qadalgan tillaqoshlar bilan to‘ldirilgan⁶.

Boshqa bir qatorda quritilgan mevalar, turshaklar va tamaki, shakarlangan pista, pushti yoki yashil olxo‘ri, uzum, anor, qamish savatchalarda osilgan qovunlar joylangan. Omborlar o‘rtasida oziq-ovqat do‘konlari bo‘lgan, qozonlarda ko‘proq sariq shafran rang qo‘shilgan palov tayyorlangan va boshqa go‘shtli taomlar sotilgan⁷.

Ba’zi do‘konlar turli xil, rang-barang chodirlarda joylashgan, masalan Registonning bir qismida katta hovuz atrofida shunday chodirlar o‘rnatalgan. Registon maydonining qolgan

² Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С. 100. [E.K.Meyendorf. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru. – M.: Nauka, 1975.–S. 100.]

³ O‘sha muallif. O‘sha asar – S. 100.

⁴ Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С. 100-101. [E.K.Meyendorf. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru. – M.: Nauka, 1975.–S. 100-101.].

⁵ Verst – masofa o‘lchov dirligi. 1 verst 1066,8 metrga teng. 1,5 verst 1600,2 m bo‘ladi.

⁶ Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С. 101. [E.K.Meyendorf. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru. – M.: Nauka, 1975.–S. 101.]

⁷ O‘sha muallif. O‘sha asar. O‘sha joy.

qismida o'tin, sabzavot, guruch, arpa, jo'xori, paxta chigit, kunjut moyi, tuyalar uchun kunjut yemlari, turli xil mevalar, don mahsulotlari, sham va aholi ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan barcha narsalar bozori bo'lib xizmat qilgan⁸.

Boshqa bir maydonda paxta matolar, pichan, maydalangan poxol sotilgan, umuman olganda otlarni boqish uchun nimaiki kerak bo'lsa hammasi sotilgan. Usti yopilgan chorrahalarda bo'yagan ipaklar, do'ppilar, tasma, pichoq, choy, ot yollari,sovut va boshqalar sotilgan⁹.

A.F.Negri ekspeditsiyasining boshqa bir vakili Eduard Aleksandrovich E.Eversman (1794-1860) bo'lib, u rus naturalisti, botanik, zoolog, entomolog va paleontolog, vrach va sayyoh edi. U Qozon universitetida faoliyat olib borgan, meditsina fanlari doktori, Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi. E.Eversman 1816-yilda Germaniyadan Janubiy Uralga Zlatoustga ko'chib kelganidan so'ng bu yerda fors va tatar tillarini mukammal o'rganadi. 1818-yilda Zlatoust qurol-asлаha zavodiga vrach bo'lib ishga kiradi, shu yillardan zoologiya va tabiatni o'rganishga bel bog'laydi hamda ko'p vaqtini Ural o'lkasi va O'rta Osiyonidagi tadqiq qilishga safarbar qiladi. 1820-yilda Orenburg general-gubernatori Essenning tavsiyasiga ko'ra, Buxoroga jo'natilayotgan rus elchiligida vrach sifatida safarga chiqqan. U elchilik tarkibida tatar savdogari qiyofasida Buxoroga kelgan. E.Eversman sayohati davomida Buxoroning tabiatini, hayvonot dunyosiga oid materiallarni to'plagan. Shu bilan birgalikda Buxoro xonligining ichki va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalariga oid bat afsil ma'lumotlar bergen¹⁰. U E.K.Meyendorf kabi Buxoroda juda ko'p karvon saroylar mavjudligini e'tirof qilgan. U hind karvon saroyida hindlar, xitoy karvon saroyida qo'qonlik va kashg'arliklar, tatar karvon saroyida tatarlar va boshqalar yashashi haqida ma'lumot beradi¹¹.

A.F.Negri missiyasining yana boshqa bir vakili ruhoniy Budrin bo'lib, uning "1820-yilda ruslar Buxoroda" asari faqat 1871-yilda nashr qilingan edi¹². Asarda XIX asrning birinchi choragida Buxoroning xo'jalik, siyosiy va madaniy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Budrinning asosiy e'tibori shaharning ham ichki, ham tashqi savdosining ahvolini yoritishga yo'naltirilgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, o'sha davrda Buxoroda chetdan keluvchi savdogarlar uchun 13 ta tosh karvon saroylar bo'lib, ularda hindlar, xivaliklar, no'g'oymalar, forslar, armanlar qirg'izlar va boshqalar yashagan¹³.

Shunday qilib, A.F.Negri elchiliginin Buxoroga safari natijasi o'sha davrda xonlik hayotining to'liq tasavvurini namoyish qila oladigan bir necha asarlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlidir. Bu asarlar XIX asr boshlarida ilmiy tadqiqotlarning boshlanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Fransuz tilida E.Eversman va E.K.Meyendorf asarlari paydo bo'lgach, tezlikda bu asarlar qismlarining rus tiliga tarjimalari chop etila boshlandi. Bu nashrlarning noshiri G.I.Spasskiy (1783-1864) bo'lgan. 1825-1827 yillarda Spasskiy Peterburgda "Aziatskiy vestnik"

⁸ O'sha muallif. O'sha asar – S. 100.

⁹ Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С. 100-101. [E.K.Meyendorf. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru. – M.: Nauka, 1975.–S. 100-101.]O'sha asar. – С. 102.

¹⁰ Eversman E. Reise von Orenburg nach Buchara. – Berlin, 1823.

¹¹ O'sha muallif. O'sha asar. – P. 77.

¹² Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца) // Туркестанский сборник. – Т. 239. – СПб., 1880. [Budrin. Russkiye v Buxare v 1820 godu (Zapiski ochevidsa) // Turkestanskiy sbornik. – T. 239. – SPb., 1880.]

¹³ Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца) // Туркестанский сборник. – Т. 239. – СПб., 1880. – С. 26. [Budrin. Russkiye v Buxare v 1820 godu (Zapiski ochevidsa) // Turkestanskiy sbornik. – T. 239. – SPB., 1880.– С. 26].

jurnalini nashr qilgan va unda sharqshunoslik bo'yicha bir nechta maqolalarni chop etgan hamda E.K.Meyendorfning asari asosida o'zining maqolasini e'lon qilgan edi¹⁴.

Buxoroning xalqaro savdodagi roliga berilgan yuqori bahoni E.K.Meyendorf va Budrindan tashqari elchilikning boshqa vakillari ham e'tirof qilgan. Negri elchiligi vakillaridan birining xatida "Shaharning deyarli yarmi karvon saroylar, bozorlar va do'konlardan tashkil topgan, shu bilan birga bu yerga turli millat savdogarlarining oqib kelishi Buxoroning savdo markazi ekanligini ko'rsatadi"¹⁵, deb ta'rif berilgan.

1841-yilda Rossiyadan Buxoroga podpolkovnik Konstantin Fyodorovich Buteniev missiyasi jo'natilgan. Bu missiya "1841-1842-yillar Buxoro ekspeditsiyasi" nomi bilan mashhur bo'lgan. Elchilik 1841-yil 5-avgustda Nasrulloxon qabulida bo'lgan. 6-avgust kuni Buteniev Nikolay Xanikovni xat va hadyalarini topshirish uchun bosh vazirning qabuliga jo'natgan. Bir yildan ortiq faoliyat yuritgan ekspeditsiya 1842-yil 9-iyunda Orenburg shahriga yetib kelgan. Zarafshon daryosi yuqori oqimi bo'ylab yurib foydali qazilmalar konlarini aniqlagan. Ekspeditsiya vakillari tomonidan tabiiy-tarixiy, geografik xarakterdagi maqolalar va asarlar nashr qilingan. Butenevning o'zi "Gorniy jurnal"da Buxoro xonligidagi tog'-kon sanoati, mineraloziya va tangashunoslik sohalari bo'yicha bir nechta maqolalar nashr qildirgan¹⁶.

K.F.Butenev boshchiligidida Buxoroga jo'natilgan missiya tarkibida M.Bogoslovskiy, V.Leman, N.Xanikov va boshqalar ham bo'lgan. Diplomat va tarjimon Nikolay Xanikov K.F.Butenev elchiligidida ikkinchi shaxs sifatida qatnashgan. N.Xanikov 1839-yilda Xiva xonligiga uyushtirilgan Perovskiy ekspeditsiyasida ishtirok etgan. U Buxoroga tashrifi yakunida o'zining "Buxoro xonligi tarixi"¹⁷ asarini yaratgan, keyinchalik asar ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan. N.Xanikov sharqshunos, etnograf, diplomat bo'lib, sharq tillarini mustaqil o'rgangan. Yuqoridagi asar muallifning o'zi guvoh bo'lganlari, so'rab-surishtirishlari va rasmiy hamda shaxsiy yozma hujjatlarni o'rganishlari asosida yozilgan¹⁸. V.V.Bartoldning ta'biri bilan aytganda, "uning kitobi xonlik to'g'risida yozilgan eng yaxshi kitob bo'lib qolmoqda", deb yozgan edi¹⁹. U o'zidan oldingi mualliflarning asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan va asarni yozishda tizimli yondoshuv texnologiyasiga amal qilgan. Haqiqatda ham asarda xonlikning chegaralari, orografiyasi, gidroografiyasi, ob-havosi, aholisi, xo'jaligi, dehqonchiligi, savdo-sotig'i, ma'muriy va ta'lif tizimi to'g'risida tizimli tahlil amalga oshirilgan. Ma'lumotlar orasida Buxoro xonligi va shaharlardagi karvon saroylar to'g'risida aniq ma'lumotlar berilgan.

¹⁴ Новейшее описание Великой Бухарии // Азиатский вестник. СПб., - 1825. - № 1-6. [Noveysheye opisaniye Velikoy Buxarii // Aziatskiy vestnik. – SPb., 1825. – № 1-6.]

¹⁵ К истории русского посольства в Бухару и освобождения оттуда русских пленных в 1821 году // Русский архив. – М., 1915. – Кн. 2. Вып. 5. – С. 37. [K istorii russkogo posolstva v Buxaru i osvobojdeniya ottuda rasskix plennqx v 1821 godu // Russkiy arxiv. – M., 1915. – Kn. 2. Vip. 5. – S. 37.]

¹⁶ К.Ф. Бутенев. Замечания о ковке булата в Бухарии// Горный журнал. 1842. Кн. XI. Ч. V. // Горный журнал. –1843. – № 1-3. [K.F. Butenev. Zamechaniya o kovke bulata v Buxarii // Gorniy jurnal. 1842. Kn. XI. Ch. V.]

¹⁷ Н.Ханыков. Описание Бухарского ханства. – Санкт-петербург, 1843. [N.Xanikov. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – Sankt-peterburg, 1843.]

¹⁸ Н.Ханыков. Описание Бухарского ханства. – Санкт-петербург, 1843. – С. II-III.; Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – М.: МГУ, 1981.– С. 37. [N.Xanikov. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – Sanktpeterburg, 1843. – S. II-III.; Arapov D.Yu. Buxarskoye x'anstvo v russkoy vostokovedcheskoy istoriografii. M., MGU. 1981.– S. 37.]

¹⁹ Бартольд В.В. История изучения Востока в европе и России // Сочинение. Т. 9. – М.: Наука, 1977. – С. 440. [Bartold V.V. Istorija izuchenija Vostoka v yevrope i Rossii // Sochineniye. T. 9. – M.: Nauka, 1977. – S. 440.].

N.Xanikov Buxorodagi karvon saroylarga to'xtalib, u yerda 38 ta karvon saroy mavjudligi, shundan 24 tasi tosh, 14 tasi cho'pqori karvon saroylar ekanligi, ularning ba'zilari shaxsiy, ba'zilari xazinaga tegishli ekanligi, ularni ijaraqa berish narxlari haqida ham ayrim ma'lumotlar taqdim qilingan. Agarda 1820-yilda Buxoroda 14 ta karvon saroy mavjud bo'lgan bo'lsa, 1841-yilga kelib ularning soni 38 taga yetgan. Bu esa so'nggi yillarda Buxoroning savdo markazi sifatidagi roli ortib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, N.Xanikov Buxorodagi tosh karvon saroylarni nomma-nom quyidagi tartibda keltirib o'tgan. 1 va 2) Urganji saroyi, 3) Abdullajon, 4) Qushbegi saroyi, 5) Xazrati Amir – ijarachi unga har yili 280 tilla badal to'laydi, 6) Galimjon saroyi, 7) Ayoz saroyi ijarachi unga har yili 200 tilla badal to'laydi, 8) Tambaku saroyi, 9,10,11 Xo'ja Jo'ybor saroyi yoki Abdulla Kati Xo'ja saroyi, ulardan biriga 260, boshqasi uchun 230 badal to'laydi, 12) No'g'ay saroyi uchun ijarachi Ko'kaldosh madrasasi foydasiga 240 tillo to'laydi, 13) Pirxona saroyi, 14) Kulluta saroyi, 15) Rajabbek devon saroyi – ijarachi 150 tillo badal to'laydi, 16) Payastan saroyi, 17) Qozi kalon saroyi, 18) Badriddin saroyi, 19) Amir Sayid ijarachi 100 tillo to'laydi, 20) Barra saroyi uchun 200 tillo to'laydi, 21) 22 , 23) Choy, 24) Ismoil xo'ja saroyi uchun 160 tillo badal to'laydi. Buxorodagi ikkinchi xil karvon saroylar yog'och karvon saroylari hisoblangan. Bular quyidagilar: 1) Urganji saroyi. 2) Berindj saroyi, 3) Buzgundj bu saroyda marena ham sotiladi, 4) Syargazi chit (chit sotilgan), 5) Jamyai zarlatta - parcha matolari sotiladigan saroy, 6) Tambaku saroyi – tamaki sotilgan, 9,10,11) Mayiz saroyi – quruq mevalar sotilgan, 12) Alacha – olacha va Buxoro ip buyumlari sotilgan, 13) Kovush-massi saroyi – bu yerda Rossiyadan keltirilib, Buxoroda tayyorlangan va Qozondan keltirilgan etik va kalishlar sotilgan, 14) Juxud saroyi – bo'yagan ipak sotiladigan karvon saroy hisoblangan. Urganji saroyidan boshqa hamma yog'och karvon saroylar savdogarlar uchun yashash joyi, shu bilan birga tovarlarni sotadigan joy ham hisoblanadi²⁰.

N.Xanikov Buxoro shahrida mavjud timlar to'g'risida ham ma'lumot berar ekan, ularning soni 9 ta ekanligi, timlar uzun qilib qurilgan, mahsulotlarni sotishga mo'ljallangan bo'lib, ular peshtaxtalarga yoyib qo'yilganligiga alohida e'tibor qaratgan. Buxorodagi timlarning 5 tasi tosh va 4 tasi yog'ochdan qurilganligini alohida e'tirof qiladi²¹. Xususan, Abdulla timida adres, beqasam, barxat va sukno sotilgan. Abdulla Xon nomli timda kiseya, kalenkor, parcha va atlaslar sotilgan, 3-5 timlar Taninga deb atalib ipak matolar sotilgan. Yog'och timlar Xassa Biyar, Darai, Timi Kalapush nomi bilan atalgan. Shulardan muallif Xassa Biyar timida nima sotilishini yozmagan, Darai nomli tim ikkita bo'lib, birinchi Daraida hind fabrika buyumlari va ayollarning etiklari, ikkinchi Darai timida ayollarning kovushlari sotilgan bo'lsa, Timi Kalapushda sallaning tegidan kiyiladigan do'ppilar sotilgan²². Demak, Buxoro juda gavjum shahar bo'lganligi uchun aholining ehtiyojalaridan kelib chiqib, bozorlar va timlar ko'p bo'lganligidan dalolat beradi. Qolaversa, Buxoro timlari bozorlari kabi ma'lum turdag'i mahsulotlarni sotishga mo'ljallangan. Bu esa shaharda savdo madaniyatining yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi.

N.Xanikov Buxoro bozorlarining tafsilotiga alohida o'rinn ajratgan. Xususan, odatda, deb yozadi, N.Xanikov, Buxorodagi Chorsu va Registonda ertalabki va kechki bozorlar bo'lgan deyilgan fikr unchalik to'g'ri emas, ichki savdoning ayrimlar, masalan ayollar ko'yylaklari, ichki kiyimlar, olacha, oyoq kiyimlar, nonlar, ip matolar, gilamlar va boshqa buyumlar kunning ikkinchi yarmida Chorsudan Registon maydoniga ko'chib o'tib sotilgan. Shu bilan birga Buxoroda doimiy ishlaydigan va ma'lum tovarlar sotishga ixtisoslashgan bozorlar hamda

²⁰ Ханыков Н.И. Описание Бухарского ханства. – С. 89. [Xanikov N.I. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – S. 89.]

²¹ Ханыков Н.И. Описание Бухарского ханства. – С. 90. [Xanikov N.I. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – S. 90.]

²² O'sha muallif. O'sha asar – С. 90-91.

ularning soni haqida ham aniq xabarlar keltirilgan. Bu bozorlar: katta bozorlar - echki terisidan tikilgan etiklar sotiladigan bozorlar (3 ta), non va non mahsulotlari sotiladigan bozorlar (3 ta), baliq bozori (1 ta), sham bozorlari (3 ta), o'tin bozori (1 ta), un, suli va jo'xori bozori (1 ta), tuz mahsulotlari bozori (1 ta), ko'mir bozori (3 ta), bo'z bozori (1 ta), mis va temir buyumlar bozori (1 ta), ko'n bozori (1 ta), etik bozori (2 ta), kepak bozori (1 ta), meva va quruq mevalar bozori (2 ta), dori-darmon bozori (1 ta), tarvuz-qovun bozori (2 ta), anor va nok bozori (2 ta), tuxum bozori (2 ta), sut bozori (6 ta), ot yoli bozori (1 ta), pichoq bozori (2 ta), moy bozori (2 ta), arqon bozori (1 ta), qul bozori (1 ta). Bundan tashqari shahar chetida Samarqand darvozasidan 1,5 verst shimolda ot bozori joylashgan. Demak, ot bozorlari juda katta bo'lib, ular maxsus shahar chetida tashkil qilingan.

Buxoro shahri atrofida ham bozorlar bo'lib, ular haftaning ma'lum kunlarida ishlagan. N.Xanikov 22 ta bozorlarning nomlarini va qaysi kunlari bozor bo'lishi to'g'risida aytib o'tgan. Bahovuddin mozori chorshanba kuni, Hazrati Miri Kulol yakshanba kuni, Kogon bozori seshanba kuni, Luyuk mazar, Adizabad, Uanganzi, Bo'ston, Shanbi Tentak, Kumushkend, Xargush bozorlari payshanba kuni, G'ijduvon bozori, Sayid ota bozori, Xo'ja Arif ota bozori, Uardanzi, Saripul bozorlari dushanba kuni, Gallasiya bozori dushanba kuni, Lak lakka bozori chorshanba kuni, Xayrabod, Char Shambi Raumitan, Jandor bozorlari yakshanba kuni, Uafkend va Pirmast bozorlari²³, ammo oxirgi ikkita bozor qaysi kunlari ishlashi ko'rsatilmagan.

N.Xanikov faqat Buxorodagina emas xonlikning savdo markazlari bo'lgan Samarqand va Qarshidagi karvon saroylar, shu bilan birga bozorlar to'g'risida ham ma'lumotlar bergan. Samarqand to'g'risida yozar ekan, shaharda 2 ta tosh karvon saroyi borligi, bozorlardan masalan sut bozori har kuni bo'lishi, asosiy bozor seshanba va yakshanba kunlari bo'lishi, bozor kunlari Madrasa Xonim bilan Sherdor Madrasasi oralig'ida odamlarning gavjumligidan yurib bo'lmasligi, hatto otliqlar ham zo'rg'a yurishini yozadi. Aholining tiqilinch bo'lishiga sabab Samarqand shahri aholisining ko'pligi emas, balki shu kunlarda tevarak atrofdan o'zbeklar, arablar va siganlarning kirib kelishi oqibatida ko'payib ketadi. Samarqand shahri aholisi uning taxminicha 25.000 dan 30.000 gacha yetadi²⁴.

1841-yil 8-sentyabrdan N.Xanikov Buxoro amirligida kuzatuvlari natijasida ayrim karvon saroylarning xarobalariga ham ko'zi tushgan. Masalan, Samarqandning Buxoro darvozasidan chiqib, 30 verst uzoqlikda Abdullaxon tomonidan qurilgan karvon saroyning xarobalarini ko'rganligini yozadi²⁵. Qarshidan Buxoroga boradigan yo'l ustida Xo'ja Muborak, Qaqir, Buzachi, Qorovul, Mama-Jurgati nomli karvon saroylarning xarobalari borligini e'tirof qilgan²⁶.

XULOSA

Xulosa o'mida aytish mumkinki, XIX asr birinchi yarmida yaratilgan tadqiqot asarlarida Buxoro xonligi karvon saroylari, timlari, bozorlari haqida qimmatli ma'lumotlar jamlangan. E'tiborli tomoni shundaki, tadqiqotlarda Buxoroda nihoyatda karvon saroylarning ko'pligi, ularning nomlari, har bir karvon saroy ma'lum mamlakat savdogarlarining to'xtashlari va yashashlari uchun joy, mollarini saqlashlari uchun ombor vazifasini o'taganligi e'tirof qilingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agarda 1820-yilda Buxoroda 14 ta karvon saroy bo'lgan bo'lsa, 1841-yilga kelib ularning soni 38 taga yetgan. Karvon saroylar sonining avvalgi yillarga nisbatan

²³ Ханыков Н.И. Описание Бухарского ханства. – С. 93. [Xanikov N.I. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – S. 93.]

²⁴ O'sha muallif. O'sha asar – С. 105.

²⁵ O'sha muallif. O'sha asar – С. 106-107.

²⁶ Ханыков Н.И. Описание Бухарского ханства. – С. 110-111. [Xanikov N.I. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – S. 110-111.]

oshib borganligi, Buxoroning savdo markazi sifatidagi rolining ortganligi, bu yerga chet el savdogarlarining kelishi yildan yilga oshib borganligini ko'rsatadi. Demak, ko'rib o'tilgan davrda karvon saroylar Buxoroning Markaziy Osiyodagi muhim savdo markazi sifatidagi roli va o'rni ortib borganligidan, Buxoro aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhum rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – М.: МГУ, 1981. – С. 37.
2. Бартольд В.В. История изучения Востока в европе и России // Сочинение. Т. 9. М.: Наука, 1977. - С. 199-482.
3. Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записки очевидца) // Туркестанский сборник. - Т. 239. - СПБ., 1880.
4. Бутенев К.Ф. Замечания о ковке булата в Бухарии // Горный журнал. 1842. Кн. XI. Ч. V.
5. К истории русского посольства в Бухару и освобождения оттуда русских пленных в 1821 году // Русский архив. – М., 1915. – Кн. 2. Вып.
6. Мейendorf Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975.
7. Новейшее описание Великой Бухарии // Азиатский вестник. СПб., - 1825. - № 1-6.
8. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. - Санктпетербург, 1843.
9. Eversman E. Reise von Orenburg nach Buchara. – Berlin, 1823.